

**O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi**

**5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)*
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent

SO‘Z BOSHI

1. IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika tibbiy ta’limni rivojlantirish markazi;
- Toshkent tibbiyat akademiyasi

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirligining 2018 yil «2» oktyabrdagi 564-sonli buyrug‘i.

3. JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi.

Mazkur malaka talabni O‘zbekiston Respublikasi xududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilib O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	5111000 - Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) bakalavriat ta'lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.2.	5111000 - Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
2.	5111000 - Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar	7
2.1.	Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar	7
2.2.	5111000 - Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari	7
3.	5111000 - Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	9
3.1.	O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	9
3.2.	5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidegi yuklama hajmi.....	14

1. 5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tasnifi

5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O‘quv reja va fan dasturining me’yoriy muddati va mos malaka(daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘quv reja va fan dasturining muddati va bitiruvchilarining malaka(daraja)si

O‘quv reja va fan dasturining nomi	Malaka (daraja)	O‘quv reja va fan dasturini o‘zlashtirishning me’yoriy muddati
Bakalavriatning o‘quv reja va fan dasturlari	Bakalavr	6 yil

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Oliy ta’limning ushbu malaka talabi **5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta’lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta’lim muassasasi mazkur bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda malaka talabi asosida o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.1.3. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatlari ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilar;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abiturlentlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

5111000- *Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi)* bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan va sog‘liqni saqlash sohalariga tegishli yo‘nalish bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o‘rtasida o‘tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish,

sog'lijni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni, ta'lim sohasiga ta'lulqli standartlar, dasturlar, xujjatlar, o'quvchi va talabalar, o'quv jarayonida qo'llaniladigan usul va vositalar;
- sog'lijni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'lijni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;
- tibbiyot asbob-uskunalar, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;
- jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;
- ilmiy-tadqiqot jarayoni.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va mutaxassislikka doir tibbiy fanlarni talab darajasida o'qitish;
- sog'lijni saqlash birlamchi tizimida tibbiy - ijtimoiy faoliyatni tashkil etish;
- aholi orasida keng tarqagan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdag'i profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;
- shoshilinch yordam ko'lamni bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda amaliyotda qo'llash;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar, muommolar bo'yicha zamonaviy ma'lumotlarga ega bo'lish va mehnat faoliyati davomida o'z ustida ishlash;
- aholi orasida keng tarqagan kasalliklar bo'yicha zamonaviy tashxislash va davolash usullaridan maqsadga yo'naltirilgan holda amaliyotda qo'llash;
- reabilitatsiya choralarini talab qilinadigan holatlarda aholiga zarur bo'lgan tibbiy xizmat ko'lamini bilish hamda chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalgalash;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;
- sog'lijni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilonaga foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtrok etish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borish.

1.2.3. 5111000- Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining turlari

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyat;
- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- reabilitatsiya;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy- boshkaruv;

- *ilmiy-tadqiqot.*

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan so‘ng o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishi mumkin.

1.2.5. Ta’limni davom ettirish imkoniyatlari

5111000- Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin:

- 5A510101 - Akusherlik va ginekologiya;
- 5A510102 – Endokrinologiya;
- 5A510103 – Terapiya (yo‘nalishlar bo‘yicha);
- 5A510104 – Otorinolaringologiya;
- 5A510105 – Kardiologiya;
- 5A510106 – Oftalmologiya;
- 5A510107 - Yuqumli kasalliklar (yo‘nalishlar bo‘yicha);
- 5A510108 – Dermatovenerologiya;
- 5A510109 – Nevrologiya;
- 5A510110 - Umumiy onkologiya;
- 5A510111 – Psixiatriya;
- 5A510112 – Xirurgiya (yunalishlar bo‘yicha);
- 5A510113 - Tashxisning instrumental va funksional usullari (yo‘nalishlar bo‘yicha);
- 5A510114 – Neyroxirurgiya;
- 5A510115 - Sog‘liqni saqlashni boshqarish (yo‘nalishlar bo‘yicha)
- 5A510116 – Tibbiy psixologiya;
- 5A510117 – Urologiya;
- 5A510118 – Morfologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha);
- 5A510119 – Narkologiya;
- 5A510120 - Anesteziologiya va reanimatologiya;
- 5A510121 – Travmatologiya va ortopediya;
- 5A510122 - Oilaviy tibbiyot;
- 5A510123 - Sud tibbiyot ekspertizasi;
- 5A510124 - Patologik anatomiya;
- 5A510125 - Shoshilinch tibbiy yordam;
- 5A510126 – Farmakologiya
- 5A510127 - Sport tibbiyoti
- 5A510128 - Dietologiya magistratura mutaxassisliklari hamda klinik ordinatura bo‘yicha ikki yildan kam bo‘limgan muddatda o‘qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o‘rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

2. 5111000- *Kasb ta’limi* (5510100 – *Davolash ishi*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar

2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar:

- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonzlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Bakalavr:

- ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistratura-da oliy ta’limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar.

2.2. 5111000 – *Kasb ta’limi* (5510100 – *Davolash ishi*) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallashi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

Tibbiy - profilaktik faoliyatida:

- aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;
- sog‘lijni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg‘or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:

- shoshilinch holatlarni o‘z vaktida aniqlash;
- kasalxonagacha bo‘lgan tez tibbiy yordamni ko‘rsatish;
- ko‘rsatmaga ko‘ra kasalxonaga yuborish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tashxislash va davolash faoliyatida:

- aholi orasida kasalliklarni erta tashxislash;
- umumiy amaliyot shifokori faoliyatida zamonaviy tashxislash usullaridan foydalanish;
- keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda to‘g‘ri davolash;
- bemorlarni ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;
- o‘z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Reabilitatsiya faoliyatida:

- kasalliklar bo‘yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o‘tkazishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni, muddatlarini to‘g‘ri aniqlash;
- reabilitatsiya chora-tadbirlarini to‘liq hajmda amalgा oshirish;
- bemorlar o‘rtasida reabilitatsiya o‘tkazishda zamonaviy usullardan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko‘rsatish;
- aholi o‘rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inidagi davolash-profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarish;
- tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;
- aholi sog‘ligi holatining asosiy ko‘rsatkichlarini rejalshtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda axbortni himoyalashga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirop etish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- axborot xavfsizligiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish **qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.**

3. 5111000- *Kasb ta’limi* (5510100 – *Davolash ishi*) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar

5111000- *Kasb ta’limi* (5510100 – *Davolash ishi*) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzlusizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

gumanitar va tabiiy-ilmiy;
klinikagacha bo‘lgan fanlar;
klinik;
qo‘srimcha.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutishi shart.

O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejaci va fanlar dasturlarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O‘quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg‘ulotlari va klinik o‘quv amaliyoti oly ta’lim muassasasi hamda davolash profilaktika muassasalarida o‘tkaziladi.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta’minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari davolash profilaktika muassasalarida o‘tkaziladi.

3.1. O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar

Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oly ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga qo‘yiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

Klinikagacha fanlar bloki:

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzviylik hamda uzlusizlikni inobatga olgan holda matematik tushunchalar va tasavvurlar umumiyligi, matematik usullar va modellar, informatsion tizim, tibbiyotda lotin tili terminologiyasining mohiyati va ahamiyati, terminoelementlar bo‘yicha klinik atamalar, fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlarning o‘zaro ta’sirlashuvi, zamonaviy tibbiy bilim olishni o‘ziga xosligi va rivojlanishning asosiy bosqichlari, biofizika fanining mohiyati, vazifalari, organizm a’zo va to‘qimalarining faoliyati asosida yotuvchi umumiy fizikaviy va biofizikaviy qonuniyatlar, fizikaviy qonuniyatlarining tirik organizmdagi jarayonlarga tatbiq etish, kimyoning asosiy qonunlari, organik birikmalarning tuzilish nazariyasi, organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, patologik holatlarda moddalar almashinuvining buzilishi haqida tasavvurlarni shakllantirishi;

tabiiy fanlarning o‘zaro fundamental birligi, tibbiyot sohasida fundamental va klinik fanlarni o‘zlashtirish uchun anatomiya fanining zarurligi, organizmning o‘sishi, shaklanishi, rivojlanishining asosiy qonuniyatlarining mohiyati, ularning tashqi muhit bilan munosabatini ta’minlayotgan tizimlar hamda ularning yoshga nisbatan o‘zgarishi, histologiya, embriologiya, sitologiya fanining nazariy va ilmiy asoslariga tayangan holda hujayra, to‘qimalarning turlari, umumiy tuzilishi va vazifalari, a’zolarning taraqqiyot manbaalari, shakllanish muddatları, umumiy tuzilish asoslari, vazifalari va yoshga ko‘ra bo‘ladigan o‘zgarishlari, odam embriologiyasi bosqichlari, ularning xususiyatlari, provizor a’zolar, fiziologiyaning maqsad va vazifasi, uning umumiy amaliyot vrachi faoliyatidagi ahamiyati, zamonaviy tibbiy mikrobiobiya, virusologiya va immunologiya fani, uning maqsad va vazifalari, odam hayot

faoliyati jarayonida fiziologik funksiyalarning boshqarilishi va asosiy qonuniyatlar haqidagi nazari hamda ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

patologik anatomiyanı o'rganishda odam tanasining normal tuzilishi, hujayra tuzilishi asoslari, shuningdek turli jarayonlarning bioximik va fiziologik kechishi, morfologik o'zgarishlar, turli kasallikkarda ichki a'zolardagi o'zgarishlarning morfofunksional mohiyatlari patologik fiziologiyaning asoslari, qonuniyatlar, patologik jarayonlar va ijtimoiy-ekologik omillarning ahamiyati, kasalliklar rivojlanishining asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi;

atrof-muhit omillarini gigienik nuqtai-nazardan baholash, atrof - muhit bilan odam organizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy-gigienik omillar, kasalliklarning rivojlanishida atrof-muhit omillarining tutgan o'rni, keng tarqalgan kasalliklarning birlamchi, ikkilamchi va uchlasmchi profilaktika asoslari, gigienik talablar bo'yicha nazariy va ilmiy bilimlarni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim;

matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqliknini ta'minlashi;

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;

jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarishning ahamiyati, tibbiy-sanitariya yordamni to'g'ri tashkil etish asoslari, insonni insonga, jamiyatga, tashqi muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi etik va huquqiy me'yorlar, jamiyat salomatligini shakllantiruvchi asosiy qonuniyatlar va omillar, ijtimoiy sharoitlar, turmush tarzi, tashqi muhit omilari, aholi salomatligini saqlash bo'yicha mahalliy boshqaruv organlari va umumiyl amaliyot shifokorining asosiy vazifalari, majburiyat va huquqlari, tibbiyot tarixi va valeologiyaning nazariy hamda ilmiy asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishi;

tibbiyot muammolarini o'rganish va hal etish bo'yicha epidemiologik yondoshishning xususiyatlari, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining umumiyl qonuniyatlar, asosiy qonunshunoslik aktlari, epidemik jarayonining rivojlanish mexanizmi, sharoit va sabablari, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarning tizimi va tarkibi bo'yicha zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun asos yaratishi;

tibbiyotda farmakologiya fanining asoslari, mazmuni, amaliy tibbiyotdagagi o'rni va ahamiyati, dori vositalarining ta'sir mexanizmlari va qo'llanishi, sog'liqni saqlash tizimida sud-tibbiy ekspertiza faoliyatining tashkiliy, protsessual jihatlari, qonunchilik asoslari, sud-tibbiy ekspertizaga molik holatlar bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish va mukammallashtirishni ta'minlashi;

Klinik fanlar bloki:

"shifokor va bemor" tushunchalari, asosiy o'rganish ob'ekti bo'lgan bioetika, bemor va shifokor o'rtasidagi munosabat, shifokor deontologiyasi, shaxslararo muloqot asoslari va modellari bo'yicha to'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi;

ichki kasalliklar propedevtikasining tibbiyot sohasidagi ahamiyati, bemorlarni so'rab-surishtirish, kasallik va hayot tarixi tushunchalari, ob'ektiv ko'rikdan o'tkazish tamoyillari, kasalliklarning asosiy klinik simptom va sindromlarini aniqlash, laborator va asbob - uskunaviy tekshirish usullari natijalari taxlili, qiyosiy tashxislash, dastlabki va yakuniy tashxis qo'yish asoslari, tibbiy hujjatlarni to'ldirish tamoyillari, ichki kasalliklarning tavsifi, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik kechishi, asoratlari, tashxislash va davolash usullari, reabilitatsiya va profilaktika chora-tadbirlari, xalq tibbiyoti, shifokor nazorati, davolovchi jismoniy tarbiya va fizioterapiya bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni yuqori darajada shakllantirishi;

klinik farmakologiyaning umumiyl masalalari, asoslari, asosiy guruh dori vositalarining farmakologik xarakteristikasi, dori vositalarini farmakodinamikasi va farmakokinetikasining turli kasallikkarda o'zgarishi, xomilador va emizikli ayollarda, bolalar va keksa yoshdagji bemorlarda dori vositalarini qo'llash xususiyatlari, bir qator ichki va tashqi omillarni xisobga olgan xolda

preparatlarni qo'llanishiga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni aniqlash, dozalash tartibini belgilash, o'tkazilayotgan farmakoterapiyaning samaradorligi va havfsizligini nazorat qilish usullari, preparatlarning nojo'ya ta'sirlari va klinik toksikologiya, dori vositalarini ratsional kombinatsiyalash, hamda, klinik retseptura bo'yicha bilimlarni chuqur o'rganish va qo'llashga asos yaratishi;

ftiziatriya asoslari va muommolari, infektion nazorat, sil bo'yicha epidemiologik vaziyat va silga qarshi dori vostalarining qo'llanishi, sil kasalligining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish, epidemiyaga qarshi rejalar tuzish va aholini axborot bilan ta'minlash, endokrinologik kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari, tarqalishi, kechishi, zamonaviy tekshiruvlar va davolash asoslari, keng tarqalgan qon kasalliklarning va nur kasalligining asosiy klinik va gematologik mezonlarini aniqlash va davolash choralarini ko'rish, kasb kasalliklarning nazariy asoslari, kasb kasalliklari bilan bemorlarni olib borish tamoyillari, allergik kasalliklarning va immun tizimining yoshga ko'ra xususiyatlari va shoshilinch allergik holatlarda tez tibbiy yordam asoslari, yuqumli kasalliklarni tarqalish qonuniyatları, yuqumli kasalliklar bilan bemorlarni qishloq vrachlik punkti va oilaviy poliklinika sharoitida olib borish tamoyillari, teri tanosil kasalliklari, orttirilgan immun tanqislik sindromining tarqalishi, o'ziga xos kechishi hamda oldini olish chora tadbirlarini mukammal bilishga yo'naltirishi va ta'minlashi;

keng tarqalgan asab kasalliklarning o'ziga xos kechishi, nevrologik bemorlarda topik, nozologik, qiyosiy va sindromologik tashxis qo'yish, asab kasalliklarida zamonaviy funksional va neyrovizualizatsion tekshirish usullarini va davolash prinsiplarini qo'llash, ruhiy statusni baholash tamoyillari, psixiatriya, narkologiya va tibbiy psixologiyaning dolzarb muommolari, psixofarmakoterapiya, psixoterapiyaning, psixoprofilaktika va psixogigienaning asosiy tamoyillari, psixosomatik buzilishlar, dispanser nazorati va tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish, nasliy kasalliklarning kelib chiqishida genetik omillarning o'rni, kasalliklarning tarqalishi va oldini olish usullari, organizmning asosiy anatomiq strukturalarini rentgenogramma, angiogramma, kompyuter, magnit-rezonans tomogramma, sonogramma va ssintigrammalarda aniqlash tamoyillari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni talab darajasida shakllantirishi;

akusherlik va ginekologiyaning dolzarb masalalari, ayol organizmining o'ziga xos xususiyatlari va kuzatiladigan o'zgarishlar, reproduvtiv salomatlikni aniqlash usullari, homiladorlik va tug'ruq faoliyatini to'g'ri olib borish, ginekologik kasalliklarning kechishi va ularni davolash usullari, kontratsepsiya, reproduktiv salomatlik asoslari va oilani rejalashtirish tamoyillarini to'liq o'rganish uchun asos yaratishi hamda rivojlantirishi;

«Sog'lom avlod», «Ona va bola», «Sog'lom ona va bola» Davlat dasturlarining asosiy yo'nalishlari, butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST) tavsiyasiga binoan turli yoshdag'i bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanish me'yorlari, bolalarni yoshi va sog'ligiga bog'liq ovqatlantirish tamoyillari, sog'lom avlodni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari, profilaktik emlash taqvimi, bolalarda uchraydigan asosiy kasalliklarning sabablari, ularning kelib chiqish mexanizmi, tarqalishi va avj olishiga ijtimoiy, nasliy, iqlim va ekologik omillarning ta'siri, bolalarda uchraydigan kasalliklarning farmakoterapiya asoslari va antibiotikoterapiysi, tug'ma va orttirilgan kasalliklar profilaktikasi, erta reabilitatsiya va dispanserizatsiya hamda neonatologiya asoslarini to'liq bilish va amalda qo'llay olishiga sharoit yaratishi;

operativ jarrohlik va topografik anatomiya fanning klinik jarrohlikdagi ahamiyati, jarrohlik amaliyoti turlari, texnikasi va bosqichlari, umumiy jarrohlikning asosiy masalalari, aseptika, antiseptika hamda trnasfuziologiya asoslari, jarohatlar va jarrohlik infeksiyalari, jarrohlik amaliyotiga bemorlarni tayyorlash va amaliyotdan so'ng parvarish qilish chora-tadbirlari, xirurgik kasalliklar rivojlanishida ekzogen va endogen omillarining ahamiyati, jarrohlik kasalliklarning kechishi, zamonaviy tashxislash usullari, xirurgik kasalliklarda samarali va maqsadga muvofiq davo choralarini o'tkazish va asoratlarni oldini olish, neyrajarrohlikning dolzarb muommolari, asab tizimi jarrohlik kasalliklarning kechishi, tashxislash usullari va davolash choralarini, bolalar orasida keng tarqalgan tug'ma va orttirilgan jarrohlik kasalliklarini aniqlash va tibbiy yordam ko'rsatish usullari, anesteziologiya va

reanimatsiyaning asosiy masalalari, ushbu sohadagi tamoyillar va qo'llaniladigan usullar bo'yicha barcha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi;

otolaringologiya, oftalmologiya, stomatologiyaning dolzARB muommolari, zamonaviy tashxislash usullari va maqsadga yo'naltirilgan davolash choralarini qo'llash, urologik kasalliklarning tarqalishi, turli yoshga, jinsga va ijtimoiy-professional guruhlarga mansub shaxslarda urologik kasalliklarning o'ziga xos kechishi, urologik kasalliklarni samarali davolash, reabilitatsiya va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish, onkologiya va bolalar onkologiyasining rivojlanishi, o'sma va o'sma oldi kasalliklarning tarqalishi, kechish xususiyatlari, o'z vaqtida aniqlash tamoyillari, bemorlarni to'g'ri olib borish, parvarish qilish va ruhiy yondoshuvga ahamiyat berish, davolash usullarini to'g'ri tanlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirishi;

travmatologiya va ortopediya, harbiy dala jarrohligi, bolalar travmatologiyasida kuzatiladigan holatlar va ularni oldini olish tamoyillari, kasalliklarning o'ziga xos kechishi, tashxislash va zamonaviy davolash usullari, shoshilinch holatlar va tez tibbiy yordam tushunchalari, turlari, tez tibbiy yordam ko'lamenti aniqlash va zarur bo'lgan tibbiy muolajalarni amalda bajarish, halokatlar tibbiyatining nazariy asoslari, favqulotda vaziyatlar, halokatlar tibbiyoti xizmati, favqulotda vaziyatlar vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish usullari haqida tasavvurga ega bo'lish va amalda qo'llashni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi hamda egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishiga zamin yarata olishi lozim;.

tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

oilaviy tibbiyot asoslari, oila bilan ishslash, muloqot, umumiy amaliyot shifokori aooliyatida tavsiya berish, UASh faoliyatida proffilaktika, sog'liqqa ta'sir etuvchi psixosotsial model, klinik amaliyotda psixosomatik muammolar integratsiyasi, aholining turli qatlamlari bilan ishslash (bolalar, o'smirlar, ayollar - fertil yoshdag'i ayollar, homiladorlar, erkaklar, qariyalar), ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi ishchilarini olib borish tamoyillari, ijtimoiy himoyalananmagan odamlarga tibbiy-psixologik yondoshuv, UASh faoliyatida bemorlar, qiyin bemor, o'lim to'shagidagi bemorlarni olib borish, mehnat qobiliyati ekspertizasini o'tkazish, ovqatlanish va ortiqcha vazn muommolari, alkogalizm va giyohvand moddalarni qabul qilish illatlari bilan kurashish, sayohatchilar uchun tibbiyot tamoyillari, UASh amaliyotida taqqoslama tashhislashni o'tkazish, klinik genetika masalalarini bilish va amaliyotga tadbiq etish;

umumiy amaliyot shifokori faoliyatida uchraydigan ichki kasalliklarni erta tashxislashi, maqsadga yo'naltirilgan tekshiruv hamda davolash rejasini tuzishi, QVP/OP sharoitida keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini to'g'ri olib borishi, dispanser nazoratiga olish va reabilitologiya asoslariga tayangan holda bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishi, geriatriya asoslarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mehnatga layoqatlilik ekspertizasini o'tkaza olishi, kasalxonaga yo'llanma berish yoki tor doiradagi mutaxassisga yuborishga bo'lgan ko'rsatmalarni bilishi, nogironlikni oldini olishga qaratilgan choralarini ko'ra olishi, shoshilinch xolatlarda tezkor tibbiy yordamni ko'rsatishi, sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishi;

umumiy amaliyot shifokori faoliyatida ko'p uchraydigan jarrohlik kasalliklari bilan og'igan bemorlarni erta tashxislash va samarali davolash tamoyillarini bilishi, jarrohlik amaliyotini talab qiluvchi surunkali jarrohlik kasalliklarining belgilarini erta va to'g'ri aniqlashi, birlamchi jarrohlik yordamini ko'rsatish va asoratlanmagan jarohatlar va kuygan yuzalarga ishlov berish va bog'lam qo'yishni bilishi, jarrohlik amaliyotini to'g'ri tanlashi va asoratlarni oldini olishi, sog'liqni saqlash birlamchi tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarrohlik amaliyoti bo'yicha ko'nikmalarni bajara olishga sharoit yarata olishi;

sog'liqni saqlash birlamchi tizimida keng tarqalgan akusherlik va ginekologik asosiy klinik sindromlarni bilishi va erta tashxislashi, davolash standartlarini qo'llay olishi, fiziologik homiladorlik bilan ayollarni qishloq vrachlik punkti va oilaviy poliklinika sharoitida olib borish

tamoyillarini bilishi, patologik homiladorlikni o‘z vaqtida aniqlash, olib borish taktikasini va ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassisiga yuborishi, tug‘ruq faoliyatini to‘g‘ri olib borishi, ginekologik kasalliklarni erta aniqlash va to‘ri olib borishi, bepushtlik va oilani rejalashtirish bo‘yicha zarur chora- adbirlarni amalga oshirishni shakllantirishi;

ta’lim yo‘nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi lozim.

Ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e’tiborga oladi.

Tanlov fanlar bloki:

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији yutuqlari, kadrlar buyurtmachilarini talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo‘yilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.

Qo‘shimcha fanlar bloki:

ta’lim yo‘nalishi talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha qo‘shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi;

kasbiy psixologiya fanining ahamiyati va mohiyati, kasbiy psixologiyaning ilmiytadqiqot uslublari, kasbiy psixologiyaga oid olib boriladigan maslahat turlari, kasbiy saralash va kasb tanlashga yo‘naltirishniing psixologik yondoshuv, kasbiy ta’limning rivojlanishi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», ta’lim jarayonining uzlusizligi va davomiyligi, kasbiy ta’limning informatsion-texnik asoslari, zamонавији informatsion ta’lim texnologiyalari, ta’lim texnologiyasi fani mohiyati va har tomonlama yetuk shaxs tarbiyalashda ta’lim texnologiyalarning maqsadi, mazmuni, usullari, kasbiy ta’lim metodikasi fani mazmuni, maqsadi, vazifalari, o‘quv rejalar, dasturlari, maxsus fanlarni o‘qitish uslublari va uning tamoyillarini shakllantirishi;

harbiy tibbiy tayyorgarlik, fuqaro muhofazasi va fuqaro muhafazasining tibbiyot xizmati bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan choralarini amalda qo‘llashni ta’minalashi;

tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatda jabrlangan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish va o‘choqni bartaraf etish uchun FMTX kuch va vositalarini, zaruriy mol-mulk bilan ta’mintoni bilishi va foydalanishi uchun zamin yaratishi;

ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar va mehnat bozori kon‘yukturasi tez o‘zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalar va fan dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minalishi;

kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to‘g‘ri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarning barqarorligini ta’minalashi lozim.

3.2. 5111000- Kasb ta’limi (5510100 – Davolash ishi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi

Barcha turdagи auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashhg‘ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O‘qishning normativ muddati olti yil bo‘lgani holda o‘quv jarayoni 308 hafta davom etishi zarur.

O‘quv davrining umumiyligi hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- | | |
|----------------------|----------|
| • nazariy ta’lim - | 63-70 %; |
| • attestatsiya - | 8-10 %; |
| • ta’til - | 12-16 %; |
| • malaka amaliyoti - | 6-12 %. |

Nazariy ta’lim hajmi “Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minton” bilim sohasiga muvofiq fanlar bloklari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- | | |
|--|--------|
| • gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki | 6-7 %; |
|--|--------|

- klinikagacha bo‘lgan fanlar bloki 20-25 %
- klinik fanlar bloki 60-65 %;
- qo‘sishcha fanlar bloki 3-7 %.

O‘quv yilida ta’til davrining umumiy hajmi 7 - 9 hafta qilib belgilanadi.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavrning asosiy ta’lim dasturi (bakalavr dasturi), profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv sikli, tibbiy bilim, tibbiy yo‘nalishlar, sog‘liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko‘nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, gistologiya, rentgenologiya, profilaktika, terapiya.

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий тиббиёт ташкilotлари ҳамда
кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Согликни саклаш вазирлиги хузуридаги
Республика тиббий таълимни ривожлантириш маркази



М.Ў.

Директор Н.Р. Янгнева

201_ йил « ____ » _____

Тошкент тиббиёт академияси



Ректор Л.Н. Туйчнев

201_ йил « ____ » _____

КЕЛИШИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Согликни саклаш вазирлиги

Вазиратига бисенчи министри Б.Қ. Юсупалиев



201_ йил « ____ » _____

М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси Согликни саклаш вазирлиги

Фан ва тиббий таълим Бош бошкармаси

Бошкарма бошлиги

ў.С. Исмаилов

201_ йил « ____ » _____



М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги хузуридаги

Олий ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълимини

Ривожлантириш маркази

Директор Б.Ҳ. Раҳимов

201_ йил « ____ » _____

